

“SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA”GI QONUNIDAGI ASOSIY YANGILIKLAR HAMDA ULARNI SOHANI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Bazorov Mirkomil Maxmudovich

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi mas’ul xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21699322>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy tabiati va jinoyat protsessidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 11-iyunda qabul qilingan “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni doirasida sud ekspertining huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari, mustaqilligi, xolisligi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish mexanizmlari, davlat va nodavlat ekspertlik institutlari hamda ekspertiza bilan bog‘liq protsessual xarajatlarni moliyalashtirish va qoplash tartibi yoritilgan. Maqolada milliy qonunchilik normalari qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil asosida baholanib, amaldagi tartibni takomillashtirishga qaratilgan nazariy xulosalar va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlari: Sud-ekspertlik faoliyati, sud eksperti, ekspert xulosasi, jinoyat protsessi, nodavlat ekspertiza, akkreditatsiya, validatsiya, davlat reyestri, manfaatlar to‘qnashuvi, protsessual xarajatlar.

Sud-ekspertiza sohasi qonun ustuvorligi va adolatni ta‘minlashning muhim ustunlaridan biridir.

Odil sudlov faqat ishonchli dalilga tayangandagina haqiqiy qiymatga ega bo‘ladi hamda ular tomonidan berilgan xulosalar tergov va sud organlariga ish yuzasidan dalillarga baho berishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday sharoitda ekspertlardan ham ilmiy yondashuv, ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talab etiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash bilan bog‘liq huquqiy normalar kiritildi, huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta‘minlashi, ularga yetkazilgan zararining o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishiga oid qoidalar aniq belgilab qo‘yildi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, muayyan jinoyat sodir etilishi faktiga davlatning reaksiyasi, avvalo, aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyatida ifodalanadi.

Ishni tergov qilish va ko‘rib chiqishda ekspertning ishtiroki keng tarqalgan bo‘lib, u protsessning boshqa ishtirokchilari huquqlarini to‘g‘ri amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ekspertning mehnati munosib taqdirlangan bo‘lishi lozim.

Ta‘kidlash joizki, so‘ngi yillarda sud-ekspertlik faoliyatini ham rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Xususan, sohada amalga oshirilgan islohotlar uzviy davomi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 11-iyunda “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Avvalgi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni 2010-yilda qabul qilingan bo‘lib, sohadagi so‘ngi yillardagi islohotlardan kelib chiqib takomillashtirish zarurati mavjud edi. Xususan,

birinchidan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari va nodavlat sud ekspertining huquqiy maqomi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan tadqiqotlar o'tkazilishi hamda elektron ma'lumotlar bilan ishlash tartiblari qonun darajasida belgilanmagan;

Ma'lumot uchun, 2023 – 2024-yillarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan 16 mingdan ortiq tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, bu o'z navbatida turli ziddiyatli holatlarga ijobiy baho berishda ko'maklashmoqda.

ikkinchidan, xalqaro tan olingan tadqiqot usullarini mamlakatimizda qo'llash masalasi huquqiy tartibga solinmagan;

Amalda foydalanilayotgan 500 dan ortiq uslubiyotlarning 200 ga yaqini xalqaro talablar asosida takomillashtirilishi lozim.

uchinchidan, ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda ilmiy, ta'lim

va boshqa tashkilotlar imkoniyatlaridan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Amaliyotda ilmiy, ta'lim va boshqa tashkilotlar mutaxassislari faqatgina sud-tergov organlari tomonidan zaruratga ko'ra ekspert sifatida jalb qilingandagina ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazmoqda.

to'rtinchidan, xalqaro hamkorlik va chet el ekspertlarini jalb qilish imkoniyatlari cheklangan.

Qonunda quyidagi yangiliklar mavjud.

1. Qonunda nodavlat sud ekspertlarining huquqiy maqomi belgilandi.

Xususan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etish, ularning faoliyat yo'nalishlari, faoliyatini yuritishga doir talablar belgilandi. Shuningdek, nodavlat sud-ekspertlariga byuro tashkil etgan holda yakka tartibda faoliyat yuritishga ruxsat berildi.

Bu o'z navbatida davlat sud ekspertiza muassasalarining mavjud ish yuklamasining kamayishiga, HMQOning malakali sud ekspertizasi xulosalariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirilishi hamda faoliyatda raqobatni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalarining ish hajmi me'yordan 4-5 baravar ortiqligi ekspertizalar bo'yicha ayrim holatlarda muddatlardan kechikishiga sabab bo'lmoqda.

2. Advokatning so'roviga asosan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq shartnoma asosida davlat va nodavlat sud ekspertlari tomonidan tadqiqotlar o'tkazish tartiblari nazarda tutildi.

Bu borada ekspertiza tayinlashga doir masalalarning huquqiy asoslari yaratilishi, sudda tortishuv institutining to'laonli ta'minlanishiga xizmat qiladi.

3. Sud-ekspertlik faoliyatining yanada ishonchliligini oshirish maqsadida akkreditatsiya va validatsiya institutlari joriy etildi.

Sud ekspertiza tadqiqotlarida foydalanib kelinayotgan usullarni, uslubiyotlarni, shuningdek uskunalarning sifati va samaradorligini baholash, shuningdek, ularning vakolatligini tan olish orqali sohani yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi.

4. Sud-ekspertiza muassasalari (tashkilotlari), sud ekspertlari

hamda sud-ekspertiza tadqiqotlarida foydalaniladigan uslubiyotlar ro'yxatining davlat reyestrini yuritish yo'lga qo'yilmoqda.

Bu sud-tergov organlariga qo'shimcha qulayliklar yaratishga, sud ekspertlari tomonidan tadqiqotlarni o'tkazishda faqatgina reyestrda uslubiyotlardan foydalanishi,

yagona amaliyot yo'lga qo'yilishi orqali xulosalarning haqqoniyligi yanada oshishiga xizmat qiladi.

5. Davlat sud-ekspertiza muassasalari ekspertlari hamda nodavlat sud ekspertlarini faoliyati yuzasidan ekspert-malaka komissiyalari tuzildi.

Sud ekspertlarining noqonuniy harakatlari bilan bog'liq holatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlashga, jismoniy va yuridik shaxslarning sud ekspertlaridan norozilik mazmunidagi murojaatlarni batafsil o'rganilishini tashkil etishga ko'maklashadi.

6. Sud-ekspertlarining ekspertizani o'tkazishga doir cheklovlar joriy qilindi (ekspertning yaqin qarindoshi, nodavlat ekspertiza muassasasi mulkdori bo'lsa va b.);

7. Vazirlar Mahkamasi hamda vakolatli davlat organi sifatida Adliya vazirligining sud-ekspertlik sohasini davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi vakolatlari qayd etildi.

Adliya vazirligiga sud ekspertizasi sohasida ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etishga ko'maklashish, ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish kabi funksiyalar berildi.

8. Nodavlat sud ekspertlarini birlashtiruvchi, ularga yaqindan ko'maklashuvchi Sud ekspertlari palatasi tashkil etildi hamda ularning vazifalari belgilandi.

Nodavlat sud ekspertlari ixtiyoriy a'zolari asosida tuziladi.

9. Sud-ekspertlik faoliyatini moliyalashtirish tartibi takomillashtirilishi nazarda tutildi.

Davlat sud-ekspertiza muassasalari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra ekspert fikrlari berganligi uchun to'lov undirishga haqliligi qayd etildi.

10. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yanada qulayliklar yaratish va ularni tajribali sud ekspertiga bo'lgan talablarini to'liq qondirish maqsadida sud ekspertizasini chet davlatning sud ekspertlarini jalb qilish orqali o'tkazish mexanizmlari belgilab berildi.

Mazkur Qonun qabul qilinishi orqali nodavlat sud ekspertlari faoliyati, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga va advokatning so'roviga asosan ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishning huquqiy asoslari yaratildi, ekspertiza xulosalarining ishonchliligi yanada oshadi, sudda tortishuv instituti to'laonli ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 11-iyundagi "Sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-1152).